

## JEK LONDON VA O‘ZBEK ADIBLARI ASARLARIDA BADIY SAN’AT

**Isakova Barchinoy Ne’matovna**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Farg‘ona akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi

[barchinoyisakova89@gmail.com](mailto:barchinoyisakova89@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada realist yozuvchilardan biri bo‘lgan Jek London asarlari va o‘zbek, rus yozuvchilari tomonidan yozilgan asarlarda badiiy san’atning ifodalanishi yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** o‘xshatish, badiiy uslub, ekspressiv, trop, tasviriy vosita, emotsionallik, metafora, kontekst.*

### Kirish

Jek London badiiy ijodi jarayonida turli xil ifoda vositalaridan foydalanar ekan, yagona maqsad voqelikni kitobxon ko‘z o‘ngida real gavdalantirish, kishilik jamiyatining dolzarb muammolarini yoritib berishdir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir yozuvchining o‘z badiiy uslubi bo‘lib, bu yozuvchining individual uslubi sanaladi. Voqelikni ifodali, ekspressiv, jonli va jozibali ifodalash uchun Jek London ham turli xil badiiy til vositalaridan foydalanadiki, bu vositalar asar tilining o‘ziga xos bo‘lishini ta‘minlaydi. O‘xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini tolaroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdir. O‘xshatish eng qadimiy tasviriy vositalardan bo‘lib, eng sodda va juda ko‘p qo‘llanadigan sintaktik hodisa hisoblanadi. Tropning bir ko‘rinishi sifatida o‘xshatish adabiyotshunoslikning o‘rganish ob’ekti hisoblanadi; uning ifodalanish usullari, struktural sostavini o‘rganish, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va, nihoyat, umuman u til fakti sifatida tilshunoslikning ham ob’ekti hisoblanadi.

### Mavzu tahlili

O‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki ma‘lum predmet biror boshqa predmetga o‘xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o‘rinda ikkinchi narsaga o‘xshatilishi mumkin. Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qilinadigan doimiy o‘xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qiymatini yo‘qotgan. Bu

tipdagi o‘xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak. O‘xshatish to‘rt asosiy qismdan tarkib topadi:

*Bog ‘lardagi qip-qizil lola  
Bo ‘lib go ‘yo yoqut piyola,  
Buloqlardan uzatadi suv,  
El ko ‘zidan qochadi uyqu.*

Keltirilgan misolda o‘xshatilgan predmet (1) lola, o‘xshatiladigan predmet (2) piyola, asos (3) yoqut va o‘xshatish vositasi - go‘yo. Jek London hikoyalarini tarjima qilar ekan Fattoh Abdullayev ko‘plab turdagi o‘xshatish strukturalaridan foydalangan. Masalan, o‘xshatish oborotlarini olaylik.

*Shamol uchar – g ‘uv-g ‘uv-g ‘uv!  
Kaliforniyaga qarab.  
Sakramento boy o ‘lkadir,  
Xatto bunda oltinlarni  
Olish mumkin erkalab*

Bu o‘xshatishning ko‘p tarqalgan formasidan biri hisoblanib, ba‘zan o‘xshatish ergash gaplarga o‘xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: “O‘xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo‘lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo‘lmagani uchun ergash gap bo‘la olmaydilar”. Masalan: “Uning qadam tashlashi odamning qadam tashlashiga o‘xshamas, umuman o‘zi ham odamga o‘xshamasdi, u odamning kulgili bir tasviri, holdan toygan, abjaq bo‘lgan bir maxluqqa o‘xshardi”.

Tildagi ko‘pgina so‘zlar o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘nolarni, hatto ba‘zan o‘z ma‘nosiga qarama-qarshi bo‘lgan ma‘nolarni ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Bir predmet belgisi boshqa predmetga ko‘chiriladi, o‘xshatiladi. “Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma‘noda ishlatilishi trop deyiladi”. Ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki predmet yoki hodisani solishtirish, o‘xshatish tropga asos qilib olinadi. Ya‘ni biror predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko‘chiriladi, o‘xshatiladi.

### **Muhokama va natijalar**

London hikoyalarini o‘qir ekanmiz, yozuvchining ham, tarjimonning ham bu kabi badiiy til vositalaridan mohirona foydalana olganliklari va shu orqali asar ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytira olganliklarini guvohi bo‘lamiz. Xususan, London hikoyalarida tropning bir ko‘rinishi bo‘lmish metaforadan ham unumli foydalanilgan.

Metaforadan nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishida foydalaniladi. Masalan: *"Tog'larning qoq yuragiga yetib olish uchun, tog' qoyalarida oyoq siring'alib ketmasligi uchun muzni o'yib, zinapoya qilishga to'g'ri keldi"*. Bu o'rinda "tog'larning qoq yuragi" metaforasidan foydalanilmoqda.

Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Ammo oddiy o'xshatish har doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi, qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a'zo - o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushirib qoldiriladi va u kontekstda ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi.

O'xshash syujetlar boshqa yozuvchilar ijodida ham uchrab turadi. Jumladan, "Anna Karenina" syujetining "Bovari xonim" romani bilan mushtarakligi L.Tolstoyning benazir romani qimmatini zarracha pasaytirmaydi. Faqatgina "adabiyotda obyektiv tarzda yuz beradigan, so'z san'atining ichki qonuniyati, an'anaviylik bilan bog'liq o'xshashliklarni taqlidchilikdan farq qilmoq kerak".

Bundan tashqari, badiiy ijod sohasida "sayyor syujetlar" degan tushuncha ham borki, bunda yozuvchi ongli ravishda tayyor syujet qoliplaridan foydalanadi. Sharhda Farqod va Shirin, Layli va Majnun, Vomih va Uzro afsonalari va qur'oniy rivoyatlar bir qator asarlarning yaratilishiga asos bo'lgani singari, g'arbda Romeo va Juletta, Faust, Hamlet, Qirol Lir bilan bog'liq syujetlardan tashqari Injil rivoyatlaridan foydalanish ham keng tarqalgan.

### Xulosa

Binobarin, birgina XX asrning o'zida sho'ro adabiyoti hududida Iso payhambar bog'liq rivoyatdan ijodiy foydalanish hodisasini M.Bulgakovning "Usta va Margarita" hamda Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanlarida ko'ra olamiz. Yozma adabiyotda folklor syujetlarining qayta ishlanishi ham shunga o'xshagan hodisadir. Sayyor syujetlardan foydalanish, xususan, Sharq mumtoz adabiyotida ancha taraqqiy qilgan. Birgina "Xamsa"navislik an'anasini oladigan bo'lsak, undagi besh dostonidan to'rttasi bir xil syujet asosida yaratilgan. Sharqda badiiy matnni baholash belletristikaga emas, o'ziga xos ravishda g'oyaga, badiiy mahoratga asoslanishidan kelib chiqmagan yevropalik adabiyotshunoslar uzoq muddat Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"ini Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari tarjimasini sifatida baholab keldilar. Mashhur sharqshunos Ye.E.Bertels birinchi bo'lib "Lison ut-tayr"ning original asar ekanligini isbotlab berdi. Avvaldan mavjud syujetni qayta ishlash Yevropa adabiyotida ham kuzatiladi. Yevropa klassisistlari ongli ravishda antik adabiyot an'analari va shu bilan bog'liq ravishda muayyan syujetlarini ham qayta tikladilar.

Professor Ozod Sharafiddinov Abdulla Qahhorga Jek London romani ta'siri xususida quyidagilarni yozadi: "...yozuvchi o'z asari uchun roman janrini tanladi, biroq u o'z niyatini bevosita amalga oshirishga kirishguncha ham ancha vaqt o'tdi... Xo'sh, ana shu ibtidosi va intiqosi yo'q voqealar to'fonini, aralash-quralash hodisalarni, olomonga o'xshash xarakterlar dunyosini qanday tasvirlash kerak. Ularning qay biri romanda qanday o'rinni egallashi, qancha sahifani band qilishi kerak. Adib bu savollar ustida ham ko'p bosh qotirishga majbur bo'ldi. U kalavaning uchini qidirib, iztirob chekib yurgan kezlarda uning qo'liga mashhur Amerika yozuvchisi Jek Londonning asarlari tushib qoladi".

Abdulla Qahhor 1944- yilda yoshlar bilan qilgan suhbatida Jek London asarlarini o'qiganini eslaydi: Jek Londonning "Den plameneet" degan bir romani bor... Adib maqolalarida Jek Londonning faqat shu asarini o'qiganini tilga oladi, ammo aniq aytish mumkinki, Amerika yozuvchisining nisbatan kam ma'lum bo'lgan asarini o'qigan Abdulla Qahhor uning mashhur asarlaridan biri bo'lmish "Martin Iden"ni o'qimay qolmagan. Jek Londonning bu romani Abdulla Qahhorga o'z romanining kompozitsiyasini topib olishga yordam bergan. Har ikki romanni o'qigan kitobxon ular o'rtasidagi ayrim o'xshashliklarga e'tibor beradi... Ikki asarning syujet chizig'ida muayyan nuqtalarda yaqinlik bor, biroq bundan qandaydir boshqacha xulosalar chiqarib bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor hikoyalari va qissalari . T. : O'zbekiston, 1992 y. –184 b.
2. Boboxonova L. T. Ingliz tili stilistikasi. T., . O'qituvchi, 1995 35 bet
3. Jek London "Kish haqida qissa" Tarjima" Toshkent 1996. –22 b.
4. Jek London "Martin Iden" Toshkent. 1994. –115 b.
5. Гальперин И. Р. Речевой стиль и стилистические средства языка // Вопросы языкознания, 1954, № 1. – 345 с.
6. William, James "Jack London's Works by Date of Composition". The Jack London Online Collection, 2010 y.